

**O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi
ijtimoiy sug'urta bo'limi tomonidan 2020 yil davomida amalga oshirilgan ishlar
to'g'risida
MA'LUMOT**

2020 yil davomida ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan viloyatimizdagi korxona, tashkilot va muassasalarda xizmat qilayotgan ishchi xodimlardan 312 nafari, shundan 27 nafari bepul kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda o'z salomatliklarini tikladilar. Ushbu maqsad uchun ijtimoiy sug'urta mablag'laridan 673 359.2 ming so'm mablag' sarflandi.

Jumladan, "Ilm ma'rifat va rakamli iktisodiyotni rivojlantirish yili" davlat dasturi tadbirlari ijrosini ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan, ko'p bolali hamda olis va chekka hududlarda, murakkab iqlim sharoitida yashovchi oilalarning ayollaridan 3 nafari, ta'lim tizimi xodimlaridan 10 nafar, ishlaydigan keksalardan 6 nafar, "Umid gulshani" sanatoriysida farzand ko'rmagan yosh oilalarning ishlaydigan a'zolaridan 4 nafari kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi.

Koronavius pandemiyasi sababli e'lon qilingan karantin davrida sanatoriylarning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi uchun oldingi yillarga nisbatan kamroq xodimlar sanatoriylarda sog'lomlashtirildi hamda bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyat yuritmaganligi uchun xodimlarning farzandlari oromgohlarda sog'lomlashtirilmadi.